



O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat **Xalq banki**

YILLIK HISOBOT 2022

MUNDARIJA

O'zbekcha

Boshqaruv Raisining murojaati.....	2
Xalq banki tarixi (Muhim sanalar).....	3
Umumiy ma'lumotlar.....	4
Xorijiy reytinglar.....	5
Bank aksiyadorlari	5
Bank tashkiliy tuzilmasi.....	6
Korporativ boshqaruv.....	7
Bank kengashi tarkibi.....	10
Bank kengashi qoshidagi qo'mitalar tarkibi.....	11
Kuzatuv kengashi va qo'mitalarning 2022-yildagi majlislari.....	12
Bank Boshqaruvi tarkibi.....	13
Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar.....	14
Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlar.....	15
Ajratilgan kreditlar.....	16
Davlat dasturlari ijrosi.....	17
Ijtimoiy vazifalar ijrosi.....	18
Mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish mahsulotlari	19
"Contact center" aloqa markazi.....	21
2023-yildagi istiqbolli rejalar.....	22
Bank xodimlari malakasini oshirish va universallashtirish.....	23
Korporativ boshqaruv tizimini tashqi baholash.....	24

BOSHQARUV RAISING MUROJAATI

Assalomu alaykum, hurmatli bank Aksiyadorlari!

Hurmatli Kengash a'zolari!

Xalq banki mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy jihatdan ko'mak berib kelmoqda.

Shu jumladan, bank tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida loyihalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish kabi vazifalar bajarib kelinmoqda.

Hisobot yilida bank faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida bankning tashkiliy tuzilmasi, korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirildi. Xususan, Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mita faoliyatini tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi.

Bankning kapitallashuv darajasini oshirish, bankning umumiy kapitalini o'sib borishini ta'minlash, uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida chet el moliyaviy institutlari oldidagi majburiyatlar o'z muddatida bajarilishi ta'minlandi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda Xalq bankini transformatsiya qilish Strategiyasi va uni amalga oshirish yuzasidan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Aholi va mijozlarga yanada ko'proq qulayliklar yaratish maqsadida pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash mexanizmlari soddalashtirildi hamda Vengriya davlatidan **1800 ta** bankomatlar olib kelindi va aholi gavjum bo'lgan joylarga o'rnatildi.

Shu bilan birga, bankning **"Xazna"** nomli yangi mobil ilovasi va uning veb-dasturi ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy qilindi hamda aholiga ko'rsatilayotgan 15 tadan ortiq davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligini yanada oshirish maqsadida iABS dasturiy ta'minotining 7-versiyasiga o'tildi hamda moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS-9 shakli) muvofiq tayyorlanishi yo'lga qo'yildi.


Ishonchimiz komilki, rivojlanish Strategiyasida belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish natijasida **Xalq banki faoliyatini yangi sifat darajasiga** ko'tarish va mamlakatning moliya bozorida yuqori o'rinlarni egallashi ta'minlanadi.

Mazkur imkoniyatdan foydalanib, bankning barcha xodimlariga mehnatsevarligi va strategik maqsadlarimizga erishish uchun qat'iyat bilan fidokorona mehnat qilganliklari uchun alohida minnatdorchilik bildiraman.

Hurmat bilan,
Boshqaruv Raisi
Sh. Atabayev

XALQ BANKI TARIXI

(MUHIM SANALAR)



UMUMIY MA'LUMOTLAR



187 ta

Bank filiallari



89 ta

Bank xizmatlari
markazi



270 ta

Xalqaro pul
o'tkazmalari
tarmog'i



515 ta

Bank kassalari



465 ta

24/7-Elektron
ofislar



226 ta

Valyuta ayirboshlash
shoxobchalari



1 143 ta

Sayyor kassalar

Mijozlar soni

9,1 mln

Jismoniy shaxslar



272 ming

Yuridik shaxslar

3 111 ta

Bankomatlar soni

52 ta

ADMLar soni

49 098 ta

Terminallar soni

7,6 mln.ta

Bank kartalari soni

Bank guruhi

Xalq banki 2011-yilda ro'yxatdan o'tgan "Xalq sug'urta" aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining yagona aksiyadori hisoblanadi.

Jamiatni avtonom boshqarish modeli, uning likvidligi va kapitali Bank guruhiga kiruvchi kompaniyalar o'rtasida ta'sir o'tkazish imkoniyatini cheklaydi va tizimli riskni kamaytiradi.

Guruhni boshqarish modeli nazorat qiladi va nazoratni kuchaytiradi:

- sug'urta kompaniyasining Kuzatuv kengashida Xalq banki vakillarining ishtirok etishi;
- sug'urta kompaniyasi Bosh direktorining Xalq banki Boshqaruvi raisi oldidagi javobgarligi;
- bank guruhiga kiruvchi kompaniyalari o'rtasidagi nazorat, boshqaruv va biznes funksiyalari darajasidagi o'zaro munosabatlar.

XALQARO REYTINGLAR

FitchRatings

Fitch Ratings

xalqaro reyting agentligi

"BB-/B" – Barqaror

2022-yil iyul

S&P Global

Standard & Poors

xalqaro reyting agentligi

"B+/B" – Barqaror

2022-yil dekabr

Litsenziyalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank amaliyotlarini amalga oshirish huquqini beruvchi 2021-yil 25-dekabrda 25-sonli litsenziyasi.

O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligining Lotereya o'tkazish huquqini beruvchi 2019-yil 28-iyundagi litsenziyasi.

Sertifikat

Xalq banki ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi audit tekshiruvidan muvaffaqiyatli o'tib, xalqaro standartlar bo'yicha muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi.


KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY TUZILMASI

BANK AKSIYADORLARI TARKIBI

7,4 trln so'm

Jami ustav kapitali

(respublikada 3-o'rin, 12,5 %)




● Moliya vazirligi

● Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

31.12.2022 y.

BANK TASHKILIY TUZILMASI



KORPORATIV BOSHQARUV

2022-yil davomida Bank tomonidan xalqaro amaliyotga muvofiq korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Texnik yordam doirasida Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Xalq bankining korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha o'rta muddatli strategiya loyihasi ishlab chiqildi bunda asosiy e'tibor uch himoya chizig'ini mustahkamlash va tavakkalchilikka asoslangan madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.

Kirish

Tijorat banklari har qanday davlatning moliyaviy tizimi uchun sezilarli darajada katta xavf tug'diradi. Shu maqsadda, banklar eng ko'p tartibga solinuvchi muassasalar qatoriga kiradi va muayyan boshqaruv qoidalari va tartibga soluvchi nazoratga bo'ysunadi. Zaif ichki nazorat va javobgarlikning yo'qligi katta inqirozlarga olib kelishi mumkin. Bankning inqirozi uning qiymatini nafaqat aktsiyadorlar, balki uning omonatchilari uchun ham yo'q qilishi mumkin va buni davlat Moliya vazirligining qimmat mablag'lari talab etilgan Xalq bankining misolida ko'rish mumkin. Banklar tizimli tavakkalchilikni keltirib chiqarishi mumkin va bir bankning inqirozi mamlakatning butun bank tizimini izdan chiqarishi mumkin. Boshqaruv bilan bog'liq ma'lum xatarlar tufayli banklar qonunchilikda yoki tartib-qoidalarda belgilangan ma'lum boshqaruv tuzilmalariga va standart hisobot shakllariga ega bo'lishlari kerak.

Shu maqsadda, Xalq bankida korporativ boshqaruvni takomillashtirish juda muhim va transformatsiya jarayonining bir qismi sifatida Bank aktsiyadorlarining diqqat markazida hisoblanadi.

Xalq banki kreditor sifatida o'zining kredit va boshqa risklarni samarali boshqarishi uchun kredit oluvchilarning korporativ boshqaruv amaliyoti bilan ham manfaatdor bo'lishi kerak. Shu bilan birga, Xalq bankda xatarlarni to'g'ri boshqarish, shuningdek, risklarni boshqarish siyosati va amaliyotini ta'minlash, boshqaruvning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Kelajakda Xalq banki faoliyati va obro'siga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, ekologik va ijtimoiy xavflarni bartaraf etish hamda barcha manfaatdor tomonlarning talablariga javob beraoladigan siyosat va tartiblarni ishlab chiqilishi lozim.

KORPORATIV BOSHQARUV

Quyida Xalq bankning kelgusi yillardagi mustahkam korporativ boshqaruv tizimiga ega bo'lishini ta'minlash uchun amalda mavjud va hozirda amalga oshirilayotgan eng asosiy jarayonlar keltirilgan:

A. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv masalalariga e'tiborni qaratish (rahbarlik va riskka-assoslangan madaniyat):

1. 2022- yilda Xalq bankini boshqarishning maqsad va tamoyillar shakllantirilgan, Bank boshqaruv organlari – aksiyadorlar, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining hisobdorligi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari, shuningdek, Bankning boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorligi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish, shuningdek, axborotni oshkor qilishda shaffoflik kabilarni aks ettiruvchi Korporativ boshqaruv siyosati qabul qilindi.

2. Shuningdek Xalq banki oldida Ekologik va ijtimoiy masalalarga oid qoidalarga rioya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish vazifasi mavjud.

3. Korporativ maslahatchi muhim ahamiyatga ega xodimlardan tayinlandi.

4. Bank tomonidan har yili Korporativ tizimi mustaqil baholovchilar tomonidan baholanadi. 2022-yil yakunlari bo'yicha Bank "Yuqori" reyting bahosini oldi.

B. Kuzatuv kengashining faoliyati va tuzilmasi:

1. Rivojlanish strategiyasi Kuzatuv kengashi tomonidan muhokama qilinadi va dastlabki tarzda ma'qullanadi.

2. Kengash a'zolariga (odatda) o'z vazifalarini bajarish uchun yetarli vaqt va ma'lumotlar beriladi. Ushbu amaliyot yanada takomillashtiriladi.

3. Bankda moliyaviy masalalar bo'yicha mas'ul etib Boshqaruv raisi o'rinbosarlaridan biri tayinlandi.

4. Ilg'or tajribalarga muvofiq, Kuzatuv kengashi tarkibiga to'rt nafar mustaqil a'zolar jalb qilingan bo'lib, ular Kuzatuv kengashining asosiy qismini tashkil etadi.

5. Kuzatuv kengashi tarkibida zarur tajribaga (bank ishi, risklarni boshqarish, buxgalteriya hisobi, raqamli transformatsiya, ESG) ega bo'lgan mutaxassislar mavjud.

6. Kuzatuv kengashi qoshida Audit va korrupsiyaga qarshi kurashish, Risklarni boshqarish, Xodimlar va mukofotlash, Strategiya va investitsiya shuningdek, Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitalari tuzildi.

7. Kuzatuv kengashining majlislari muntazam ravishda (chorakda kamida bir marta) o'tkazilmoqda va Bank boshqaruvi faoliyatini nazorat qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

8. Kuzatuv kengashining aksariyat majlislari zamonaviy videoaloqa kanallaridan foydalangan holda o'tkazilishiga qaramay, yuzma-yuz majlislar har yili kamida ikki marta o'tkaziladi.

9. Sirdan ovoz berish amaliyoti mukammal (yetarli darajada samarali) emasligi sababli, Kuzatuv kengashi kelgusi yilda ushbu jarayonni o'zgartirishni maqsad qilgan.

10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan baholash tartibi asosida Kuzatuv kengashi, uning qoshidagi Qo'mitalar va Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati har yili baholashdan o'tkaziladi.

11. Kuzatuv kengashi a'zolari 2022- ekologik va ijtimoiy risklar bo'yicha malaka oshirish kurslarida ishtirok etmagan bo'lsada, kelgusi yilda, bankning korporativ boshqaruv tizimida muhim yo'nalish hisoblangan, ESG malaka sertifikatini olish rejalashtirilgan.

KORPORATIV BOSHQARUV

C. Nazorat muhiti (ichki nazorat tizimi, risklarni boshqarish, ichki audit funksiyasi va normative talablarga rioya qilish):

1. Xalq banki – tasdiqlangan yoki ishlab chiqish jarayonidagi ichki nazorat siyosati va tartiblarini amalga oshirib kelmoqda.

2. Kapitalni boshqarish, kredit portfeli sifati va samaradorligi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va qolgan barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank va boshqa tartibga soluvchi organlar tomonidan belgilangan talab va standartlarga muvofiq Ichki normativ hujjatlar va amaliyotlar takomillashtirilmoqda.

3. Ichki audit xizmati muntazam ravishda tashqi auditorlar bilan hamkorlik qiladi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

4. Bank strategiyasi, kapital va moliyaviy rejalari hamda mehnatga haq to'lash amaliyotiga mos kelishini ta'minlash maqsadida risk appetite bayonoti loyihasi ishlab chiqilmoqda.

5. Bankda risklarni boshqarish tizimi takomillashtirilmoqda va Kuzatuv kengashiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan Risklarni boshqarish bo'yicha mutaxassis (Risk kompleksi rahbari) tayinlandi.

6. Bankda qonun hujjatlari va bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarni bajarilishini nazorat qilish bo'yicha komplayens rahbari (Ichki nazorat va komplayns departamenti direktori) tayinlandi.

7. Risklarni boshqarish siyosati (qonunchilik talablariga muvofiq).

8. ML/CFT funksiyalari o'rnatildi.

9. Huquqbuzarliklar (noto'g'ri xatti-harakatlar) to'g'risida xabardor qilish siyosati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

10. Tashqi auditorlik tashkilotining xatlari bank Boshqaruviga taqdim etildi.

11. Bugungi kunda Bank tomonidan atrof-muhitni va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya etish bo'yicha o'z faoliyati ko'lamini kengaytirishni rejalashtirmoqda.

D. Oshkoralik va shaffoflik:

1. Moliyaviy hisobotlar mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirib borilmoqda.

2. Aloqador shaxslarni kreditlash siyosati va aloqador shaxslar bilan bitimlarni tasdiqlash tartibi ishlab chiqilmoqda.

3. Hozirda "Atrof-muhitni va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda boshqaruv" (ESG) bo'yicha hisobot mavjud bo'lmasada kelgusi yil uchun "Atrof-muhitni va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda boshqaruv" siyosatini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

E. Minoritar aktsiyadorlar bilan aloqalar:

1. Hozirda minoritar aktsiyadorlar mavjud emas.

F. Manfaatdor tomonlar ishtirokini boshqarish:

1. Bank manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalarda ishonchli munosabat o'rnatadi.

KUZATUV KENGASHI FAOLIYATI

KUZATUV KENGASHI TARKIBI

Kengash raisi



**Ishmetov Timur
Amindjanovich**

O'zbekiston Respublikasi
Moliya vaziri

Kengash a'zosi



**Boboev Adiz
Muzafarovich**

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag'allikni qisqartirish
vaziri o'rinbosari

Kengash a'zosi



**Ibragimov Djamol
Kamilovich**

O'zbekiston Respublikasi
Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi boshqarma
boshlig'i o'rinbosari

*Kengash raisi
o'rinbosari*



**Rodjer Tomson
(AQSH)**

"Akin Group"
boshqaruvchi direktor

Kengash a'zosi



**Zainutdinov Sirojiddin
Sayfutdinovich**

(Rossiya Federatsiyasi)
"Gruppa ILIM" AJ Ichki audit
bo'yicha Vitse Prezidenti

Kengash a'zosi



**Taron Ganjalyan
(Niderlandiya)**

Niderlandiyadagi «LINKS Analytics»
kompaniyasi Boshqaruvchi
direktori

Kengash a'zosi



**Kayzer Nasim
(Kanada)**

Xalqaro rivojlantirish va
investitsion bank bo'yicha
mutaxassis

Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 7 nafardan iborat bo'lib, ular ijro organiga kirmagan holda har yili saylanadi. Amaldagi Kuzatuv kengashining asosiy qismi mustaqil a'zolaridan iborat bo'lib, ular 4 nafarni tashkil qiladi va AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Rossiya fuqarolari hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining ko'pchiligi (57%) ishtirok etishi mazkur boshqaruv organining mustaqil qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi.

KUZATUV KENGASHI VA QO'MITALARNING 2022-YILDAGI MAJLISLARI

Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar faoliyatining maqsadi – Bankning barqaror rivojlanishini va aksiyadorlari uchun uzoq muddatli qiymatini saqlab qolish uchun bank transformatsiyasini amalga oshirish, xolis va puxta o'ylangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlashdan iborat.

Kuzatuv kengashi qoshida 5 ta qo'mita tashkil etilgan

STRATEGIYA VA INVESTITSIYA QO'MITASI	AUDITORLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH	RISKLARNI BOSHQARISH QO'MITASI	KORPORATIV BOSHQARUV, TAYINLASH VA E'TIKA QO'MITASI	XODIMLAR VA MUKOFOTLASH QO'MITASI
Qo'mita raisi Taron Ganjalyan	Qo'mita raisi Zaynutdinov Sirojiddin Sayfutdinovich	Qo'mita raisi Rodjer Tomson	Qo'mita raisi Kayzer Nasim	Qo'mita raisi Ibragimov Djamol Kamilovich
Qo'mita a'zosi Rodjer Tomson	Qo'mita a'zosi Ibragimov Djamol Kamilovich	Qo'mita a'zosi Zaynutdinov Sirojiddin Sayfutdinovich	Qo'mita a'zosi Taron Ganjalyan	Qo'mita a'zosi Kayzer Nasim
Kayzer Nasim	Rodjer Tomson	Taron Ganjalyan	Ibragimov Djamol Kamilovich	Zaynutdinov Sirojiddin Sayfutdinovich

Qo'mita raislarining hamda qo'mita a'zolarining asosiy qismi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari hisoblanadi.

KUZATUV KENGASHI VA QO'MITALARNING 2022-YILDAGI MAJLISLARI

Hisobot yili davomida Kuzatuv kengashining 27 ta majlislari o'tkazildi va mazkur majlislarda bank faoliyatiga oid 155 ta masala ko'rib chiqildi.

Amalga oshirilgan ishlar	Soni	Bajarilishi (%)
Majlislar	27	-
Muhokama qilingan masalalar	155	-
Berilgan topshiriqlar	255	100 %

2022-yil davomida Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarning 63 ta majlislari o'tkazildi va mazkur majlislarda bank faoliyatiga oid 278 ta masala ko'rib chiqildi hamda 358 ta topshiriq va tavsiyalar berildi.

Qo'mitalar	Majlislar soni	Muhokama qilingan masalalar	Berilgan topshiriqlar va tavsiyalar soni
Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi	24	104	141
Korporativ boshqaruv, tayinlash va e'tika qo'mitasi	9	30	32
Risklarni boshqarish qo'mitasi	13	86	101
Strategiya va investitsiya qo'mitasi	11	29	51
Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi	11	29	33
Jami	68	278	358

2022 yil davomida Qo'mitalar tomonidan Kuzatuv kengashi va bank Boshqaruviga berilgan tavsiyalar asosida bankning bir qator ichki normativ hujjatlari va davriy hisobotlar tasdiqlandi hamda bank faoliyatiga oid iqtisodiy va moliyaviy holatlar tahlil qilindi shuningdek, bank tizimida rahbar xodimlar faoliyati hamda xodimlarni ishga olish va ularni rag'batlantirish tizimi qayta ko'rib chiqildi.

BANK BOSHQARUVI

TARKIBI



**Atabayev Shuxrat
Xaldarovich**

Boshqaruv Raisi



**Azimov Zafar
Abdumajidovich**

Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinbosari



**Raxmonov Toxir
Ziyatovich**

Rais o'rinbosari



**Ruziyev Farrux
Aralovich**

Rais o'rinbosari



**Kutliyev Dilshod
Orifovich**

Rais o'rinbosari



**Rashidova Gulnoza
Ataxanovna**

Rais o'rinbosari



**Shernazarov Kiyomiddin
Boynazarovich**

Buxgalteriya hisobi va
hisoboti departamenti
direktori - bosh
buxgalter



**Tashmatov Nuriddin
Zubaydullaevich**

Yuridik departament
direktori

ASOSIY MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR

Moliyaviy ko'rsatkichlar

mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	01.01.23 y. holatiga fakt	01.01.22 y. holatiga fakt	%
Aktivlar	31 670	26 920	18 %
<i>Kreditlar</i>	19 925	17 410	14 %
Passivlar	26 353	21 442	23 %
<i>Depozitlar</i>	7 958	6 578	21 %
Kapital	5 319	5 480	-3 %
<i>Ustav kapitali</i>	7 433	7 433	0 %

mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	2022-yil fakt	2021-yil fakt	%
Operatsion daromadlar	2 651	1 640	62 %
Foizli daromadlar	3 319	3 069	8 %
Foizli xarajatlar	- 2 099	- 2 026	4 %
Sof komission daromadlar	847	674	26 %
Sof boshqa daromadlar	583	- 77	753 %
Operatsion xarajatlar	- 1 460	- 1 251	17 %
Xodimlar uchun xarajatlar	- 931	- 836	11 %
Ma'muriy xarajatlar	- 374	- 302	24 %
Amortizatsiya xarajatlari	- 155	- 113	38 %
Zaxiralar yaratish bo'yicha sof xarajatlar	-1 183	-2 575	- 54 %
Sof foyda	8	-2 187	

ASOSIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Ko'rsatkichlar	01.01.23 y. holatiga fakt	01.01.22 y. holatiga fakt
Kapital rentabelligi (ROE)	0,1 %	-43,1 %
Aktivlar rentabelligi (ROA)	0 %	-7,8 %
Sof foizli marja (NIM)	4,8 %	4,4 %
Kapital yetarliligi (CAR)	18,8 %	17,9 %
Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)	55 %	76 %

Jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari:

**Eximbank
Hungary Plc**

13,3
mln.
yevro

AFD
AGENCE FRANÇAISE
DE DÉVELOPPEMENT

15
mln.
yevro
ekv.

AJRATILGAN KREDITLAR

2022-yilda moliyalashtirilgan loyihalar

Ajratilgan kreditlar	Soni	Summasi (mlrd so'm)
Sanoat	78 495	2 133
Qishloq xo'jaligi	80 162	2 320
Xizmat ko'rsatish	22 982	2 366
Jismoniy shaxslarga	127 936	2 874
Jami	309 575	9 693

DAVLAT DASTURLARI

IJROSI

Yo'nalish nomi	Summasi (mlrd so'm)	Yaratilgan ishchi o'rne
Jami	3 856	175 994
Har bir oila – tadbirkor dasturi	3 623	165 866
Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash	41	4 199
Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	136	4 826
Hunarmandchilikni rivojlantirish	48,7	1 025
Mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg'armalar	6,4	78

IJTIMOY VAZIFALAR

IJROSI

6,3 mln nafar

Jami to'lov oluvchilar soni

5,2 trln so'm

Bir oylik ijtimoiy to'lovlar

12 ta

Ijtimoiy to'lov turlari

Yo'nalish nomi	Ijtimoiy to'lovlar	
	Soni (ming nafar)	Summasi (mlrd so'm)
Jami	6 389	5 233
Pensiya	3 913	3 921
Ijtimoiy nafaqa mablag'lari (2, 14 yosh)	2 282	1 059
Harbiy pensiya	43	142
Boshqalar	151	111

Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi va soddalashtirildi:

2022-yil davomida

Pensiya mablag'larini bank kartalari orqali to'lab berish, jami pensiya mablag'larining 49%ni tashkil etdi.

Pensiya mablag'larining to'lanmagan qoldiq summalarini tegishli vakillik hisobvaraqlariga inson omilisiz, o'z vaqtida va to'g'ri qaytarilishi avtomatlashtirildi.

"Homiladorlik va tug'ish" nafaqasi hamda Jazoni o'tab ozodlikka chiqqan fuqarolarga moddiy yordam to'lovlari "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali to'lanishi avtomatlashtirildi.

2022-yil davomida

Harbiy pensionerlar uchun **"Uzasbo harbiy platformasi"** ishlab chiqildi va pensiya mablag'lari avtomatik ravishda 100% bank kartalari orqali to'lab berilishi avtomatlashtirildi. Shuningdek, bank filiallarida harbiy pensiya varaqasi yuritilishi bekor qilindi.

Vafot etgan pensiya va nafaqa oluvchilarni aniqlash bo'yicha bankning tegishli ma'lumotlar bazasi FHDYO bazasi bilan integratsiya qilindi. Bunda, vafot etgan fuqarolarning pensiya to'lovlari pensiya dasturida to'lanishining oldi olindi.

2022-yil davomida

Barcha filiallarda Cashbox dasturi ishga tushirildi va kassada yuritiladigan barcha kitoblar, talabnomalar va kirim-chiqim amaliyotlari va yuridik mijozlarga xizmat ko'rsatish amaliyotlari avtomatlashtirildi.

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to'lab berilishi avtomatlashtirilib, to'lovlarni bankning istalgan tuman (shahar) filiallaridan olish imkoniyati yaratildi.

Sayyor kassalar optimizatsiya qilindi.

MIJOZLARGA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH

Masofaviy xizmat ko'rsatish mahsulotlari



96,7 ming ta

Yuridik shaxslar uchun
Foydalanuvchi

- ✓ Korporativ va oylik ish haqi kartalariga kirim qilish
- ✓ 24/7 rejimida kommunal va budget to'lovlarini o'tkazish
- ✓ Valyuta konvertatsiyasi uchun "onlayn ariza berish"
- ✓ Hisobraqamlardagi mablag'larni nazorat qilish
- ✓ Hisobotlarni shakllantirish va yuklab olish
- ✓ Onlayn tarzda to'lov topshiriqnomasini qo'yish



433,4 ming ta

Jismoniy shaxslar uchun
Foydalanuvchi

- ✓ Xalqaro pul o'tkazmalari (SWIFT va "Золотая корона")
- ✓ Bank kartasiga onlayn buyurtma berish
- ✓ P2P o'tkazmalari va "Avto to'lov" xizmatlari
- ✓ Kommunal va boshqa to'lovlar
- ✓ Kreditlarni so'ndirish
- ✓ JBPTga ixtiyoriy kirim-chiqim

MIJOZLARGA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH

2022-yil
davomida

Sberbank-online mobil ilovasi orqali Xalq banki kartalariga Rossiya Federatsiyasining istalgan hududidan 24/7 rejimida pul o'tkazmalarini amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

2,9 mln nafar

Fuqaro soni

2,8 trln so'm

O'tkazilgan to'lovlar

2022-yil
dekabr

Bankning yangi **"xazna"** nomli brendi asosida **"Play market"** va **"app store"** internet ilovalariga 1-bosqich bo'yicha yakunlangan xizmatlarni o'z ichiga olgan mobil ilova taqdim etildi.

Mazkur mobil ilova orqali bank mijozlari **"xazna lite"** yoki **"xazna pro"** yo'nalishlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Mobil ilovani takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

2022-yil
davomida

"E-commerce" (ecom.xazna.uz) elektron to'lov billing tizimi amaliyotga tadbqiq etildi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda "Safarbarlik chaqiruvi rezervi" uchun to'lovlarni bankka tashrif buyurmasdan to'lash imkoni yaratildi.

694 ta holatda

1,1 mlrd so'm

O'tkazilgan to'lovlar

2022-yilda

Rossiya Federatsiyasining **"MTS"** banki bilan hamkorlikda qo'shma Kelishuv imzolandi. Mazkur kelishuv doirasida 2 xil uslubda qo'shma xizmatlar amaliyotga tadbqiq etilishi rejalashtirilgan.

- **"MTS"** banki kartalari orqali respublikamizning istalgan **"Humo"** va **"Uzcard"** bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazmalari yo'lga qo'yiladi.

- Rossiya Federatsiyasining **"Tezkor pul o'tkazmalari"** tizimiga a'zo bo'lgan boshqa banklari tomonidan yo'lga qo'yiladigan o'tkazmalarni bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish yo'lga qo'yiladi.

ALOQA MARKAZI



24/7

tartibida
ishlamoqda



Bank kartalari buyurtmasi onlayn
tarzda qabul qilinmoqda



2 000 ta

Kunlik murojaat
soni (o'rtacha)



15 % (44 932 ta)

Masofadan to'liq hal etilgan murojaatlar
(karta ochish, kredit to'lovi va boshqalar)



170 mlrd so'm


Muammoli kreditlar
undirildi



68 % (202 462 ta)

Masofadan masalaning 1-bosqichi
hal etilgan murojaatlar

Kelib tushgan murojaatlar soni **541 050 ta**



2023-YILDAGI ISTIQBOLLI REJALAR

Asosiy ko'rsatkichlar

35,9 trln. so'm (13%)

Aktivlar hajmi

22,6 trln. so'm (13%)

Kredit portfeli

29,7 trln. so'm (13%)

Majburiyatlar

9,8 trln. so'm (23%)

Depozitlar hajmi

584,1 mlrd. so'm

Sof foyda

2,9 trln. so'm (11%)

Operatsion daromad

Kredit portfeli va boshqa moliyaviy aktivlar sifatini oshirish:

1. Muammoga aylangan kreditlarni toifalarga ajratib, ularni undirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish va muammoli kreditlar ulushini (NPL) 11,7 % dan 8 %ga tushirish;
2. Aktivlar sifatini yaxshilash va yuqori likvidli aktivlar miqdorini oshirish maqsadida Davlat va Markaziy bank obligatsiyalari hajmini 5,0 trln. so'mga yetkazish.

Bank transformatsiyasi va biznes jarayonlarni optimallashtirish hamda Osiyo taraqqiyot banki konsultantlari bilan hamkorlikda Strategiyani amaliyotga joriy qilish:

1. Xalq bankida biznes jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida HRMS, Soft Collection, o'qitish tizimi platformasi, hisobot tizimi avtomatlashuvi va elektron navbat tizimlari loyihalarini amalga oshirish;
2. Amaliyotlarni raqamlashtirish maqsadida yangi mobil ilova va internet-banking tizimini rivojlantirish, kartalar protsessing markazini tashkil qilish, Agent-banking, bankomatlar va ADM tizimlarini rivojlantirish;
3. Biznes jarayonlari va bek-ofis funksiyalarini markazlashtirish – yagona MFO, markazlashgan kassa, markazlashgan operatsiyalar bo'linmalarini tashkil etish.

BANK XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Xalqaro tajribani o'rganish

Islamic Development Bank Institute xususiy sektorni rivojlantirish ekspertlari;

German Sparkassenstiftung (Germaniya) vakillari va murabbiylari;

JICA (Yaponiya) ekspertlari va maslahatchilari;

"Gazprombank" va **CF** (Moliyaviy texnologiyalar markazi) ekspertlari;

ICC (International Chamber of Commerce) maslahatchisi;

ICF (International Coaching Federation) murabbiyi va maslahatchisi.

Keng ko'lamli o'quv tadbirlar

200 nafar ayol rahbarlar uchun Davlat Boshqaruv Akademiyasida chet el ekspertlarini jalb qilgan holda o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi;

300 nafar xodimi uchun jamoani birlashtirish, rahbariyat va unga bo'ysunuvchi xodimlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni yaxshilash bo'yicha interaktiv treninglar o'tkazildi;

360 nafar viloyat (shahar), tuman boshqaruvchilari hamda ayol o'rinbosarlar ishtirokida 64 soatlik (7 kunga taqsimlangan) seminar-trening o'tkazildi;

40 nafar Markaziy apparat xodimlari uchun 9 soatlik "Xodimlarni transformatsiya jarayoniga tayyorlash va professional malakalarini oshirish" mavzularida seminar-trening o'tkazildi.

3 nafar xodim **Chexiya** davlatidagi **"Evropa amaliy bilimlar va menejment universitetida"** amaliyot o'tadi.

4 871 nafar xodim o'qitildi
875 nafar xodim sertifikat oldi


55%

Onlayn o'quv kurslari
tashkil etildi.


45%

Kunduzgi o'quv
kurslari tashkil etildi.

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TASHQI BAHOLASH

**QIMMATLI QOG'OZLARNING
MARKAZIY DEPOZITARIYSI
DAVLAT KORXONASI**



**STATE ENTERPRISE
CENTRAL SECURITIES
DEPOSITORY**

100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107.

107, Mustakillik avenue, Tashkent city,
100170, Republic of Uzbekistan

Tel: 998 (71) 211-09-09. Internet: www.deponet.uz, uzcsd.uz, e-mail: info@uzcsd.uz, uzcsd@exat.uz
Moliya vazirligi G'aznachiligi, G'azna HR: 23402000300100001010, Markaziy bank Toshkent shahar boshqarmasi, MFO:00014, STIR:201122919,
Shaxsiy g'azna hisob raqami: 470010860262697041130021002, STIR: 203021987, IFUT: 66190

4 may 2023 yil.

02/10-2323-son

**“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki”
корпоратив бошқарув тизимини баҳолашни ўтказиш тўғрисида**

ХУЛОСА

Қайси корхона учун тайёрланди	“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki”
Юридик манзил	Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Қатартол кўчаси, 46
Банк реквизитлари	Ўзбекистон Республикаси “Aksiyadorlik tijorat Xalq banki” нинг бош Амалиёт бошқармаси х/р: 1990 7000 8000 0112 5887
Қайси корхона томонидан тайёрланди	“Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси” давлат корхонаси
Юридик манзил	100 170, Тошкент ш., Мустақиллик шоҳ кўчаси, 107-уй
Телефон/факс	тел: 998 (71) 267-37-42; факс: 267-36-87
Давлат рўйхатидан ўтганлик тўғрисидаги маълумотлар	Давлат рўйхатидан ўтганлик тўғрисидаги гувоҳнома рақами: 000979-03, 02.09.2008 й.
Банк реквизитлари	Молия вазирлиги ғазначилиги х/р 23402000300100001010, Марказий банк Тошкент шаҳар бошқармаси.
Бош директор	Абдужаббаров Шерали Янгибаевич
Баҳолашда иштирок этган мутахассиснинг фамилияси, исми ва отасининг исми	Абсаламов Э.Б.

“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki” (кейинги ўринларда – Банк) корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш тўғрисидаги хулоса “Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси” давлат корхонаси (кейинги ўринларда – Марказий депозитарий) томонидан тайёрланди.

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TASHQI BAHOLASH

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: MM45417701

Марказий депозитарий “Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ва Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 21 майдаги “Қимматли қоғозлар марказий депозитарийсини ташкил этиш ва унинг фаолияти масалалари тўғрисида”ги 263-сонли қарори, Устав ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ ўз фаолиятини амалга оширади.

Корпоратив бошқарув кодексига мувофиқ Марказий депозитарий акциядорлик жамиятларига корпоратив бошқарув тизимини баҳолашни ўтказиш бўйича хизматларни кўрсатиш ҳуқуқига эга мустақил ташкилотлар рўйхатига киритилган.

Банкда корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида мустақил ҳолисона фикрни шакллантириш баҳолашни ўтказишнинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади.

Банкнинг корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш Ўзбекистон Республикаси Давлат рақобат қўмитаси (ҳозирда – Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги) ва Корпоратив бошқарув илмий-таълим маркази (ҳозирда – Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби) томонидан 25.07.2016 йилда тасдиқланган саволнома асосида ўтказилди.

Марказий депозитарий фақат Банк томонидан тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисоботлар, маълумотлар ва бошқа материаллар асосида Банкнинг корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида шакллантирилган ўз нуктаи назарини ифодалаганлик учун жавобгар ҳисобланади.

Банк тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисоботлар, маълумотлар ва бошқа материалларнинг тўлиқлиги, мазмуни ва ишончлилиги учун жавобгар ҳисобланади. Олинган ҳужжатларнинг, маълумотларнинг ва бошқа материалларнинг асл нусхалиги ва ишончлилиги текширилмади ва баҳслашилмади. Баҳолаш амалга оширилгандан кейин Марказий депозитарийга келиб тушган, ёки қандайдир сабабларга кўра тақдим этилмаган ҳужжатлар Марказий депозитарийнинг кўриб чиқиш доирасига киритилмади.

Марказий депозитарий Банк томонидан тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисоботлар, маълумотлар ва бошқа материаллар Банкнинг корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида мустақил фикр ифодалаш учун етарли деб ҳисоблайди.

2022 йил якуни бўйича Корпоратив бошқарув тизими даражасини баҳолашнинг натижаси **654 балл**ни ташкил этди ва Марказий депозитарийнинг ҳулосасига мувофиқ Банкнинг корпоратив бошқарув тизими даражаси **юқори** деб эътироф этилади.

Бош директорнинг
биринчи ўринбосари в.в.б.



А. Юсупходжаев